

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
URGANCH FILIALI

MAVZU: MSDOS strukturasi va tarkibi

Bajardi:
Qabul qildi:

Yusupov G'.
Matyaqubov M .

Urganch 2015

MSDOS strukturasi va tarkibi

Bu bandda MS DOS operatsion sistemasi va MS DOS ning buyruqlari yordamida qanday qilib fayllar, disklar, kataloglar, ekran va printerlar bilan ishlashni qarab chiqamiz.

Shu narsani ta'kidlab o'tish kerakki, dasturlar ta'minoti bozorida MS DOS dan boshqa operatsion sistemalar ham bor. Masalan, IBM (PC DOS), Novell DOS, PTS DOS va h.k.

Albatta, bular MS DOS dan katta farq qilmaydi, ular OS ning utilitlari va MS DOS buyruqlari parametrlarining imkoniyatlari bo'yicha farq qiladi. Biz PC DOS, Novell DOS, PTS DOS va h.k. larni bitta umumiy termin bilan «DOS» deb yuritamiz. **MS DOS — Microsoft Dick Operatsion System**, ya'ni Microsoft firmasining diskli operatsion sistemasi deganidir. Bunda diskli degani — sistema diskdan ishga tushiriladi degan ma'noni anglatadi.

MS DOS 1981- yil IBM firmasi buyurtmasi bo'yicha Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqilgan. Dastlabki MS DOS deb yozil-gan IBM PC kompyuteri hozirgi zamonaviy kompyuterlarga juda kam o'xshagan. Masalan, Intel—8088 mikroprotessorli kompyuter-lar 256 Kbaytli operativ xotiraga ega bo'lib, qattiq disk (vinchestr)ga ega bo'lmagan va oq-qora monitorga ega bo'lib, bor-yo'g'i 160 Kbaytli yumshoq diskda ishlagan.

MS DOS ning 1-versiyasi OS ning 8 baytli mikroprotessorida ishlashi va faqat Intel—8088 mikroprotessoriga mo'ljallangan bo'lishi, bu sistemaning ancha ommaviy bo'lib ketishiga olib keldi. Albatta, bu juda oddiy operativ sistema bo'lib, bor-yo'g'i bir necha funksiyalarni bajargan. Bu sistema bitta foydalanuvchining va bitta dasturning ishlashini ta'minlagan. Shunday bo'lishiga qaramasdan o'sha paytda ishlab chiqarilgan kompyuterlarga to'la mos kelgan va kompakt bo'lishiga olib kelgan.

IBM PC kompyuteri paydo bo'lgandan so'ng bir necha yil o'tar-o'tmas u shu darajada rivojlandiki, hozirgi zamon kompyuterlarini 1980- yildagi kompyuterlar bilan qiyoslab bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketdi. Microsoft firmasi MS DOS ga

juda ko'plab o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritdi.

Biz quyida MS DOS ning 6.22 versiyasi bilan tanishamiz. Bu versiya 1994-yil may oyida ishlab chiqilgan. Bu versiyada kirillcha harflarni klaviaturadan kiritish va ekranda aks ettirish imkoniyati paydo bo'lgan. Bungacha bo'lgan versiyalarda kirillchani ishga tushirish uchun maxsus dasturdan foydalanilgan.

MS DOS tarkibi. MS DOS operatsion sistemasi quyidagilardan tashkil topgan:

1. IO.SYS va MSDOS.SYS diskli fayllar. Bu fayllar MS DOS ning asosiy sistemali fayllari bo'lib, kompyuter ishga tushirilganda ular operativ xotirada doimiy joylashadi va MS DOS ning asosiy dasturlarini o'z ichiga oladi. Ular diskning o'zak katalogida joylashadi va MS DOS ni ishga tushiradi. Bu fayllardan oddiy yo'l bilan yumshoq diskka nusxa olish mumkin emas.

2. COMMAND.COM (buyruq protsessori) fayli. Bu fayl ham diskning o'zak katalogida joylashgan bo'lib, MS DOS ning asosiy buyruqlarini bajaradi. Bunda u kerakli dasturlarni topadi, operativ xotiraga yuklaydi va boshqaruvni uzatadi. Natijada DOS ning taklif buying'i chiqadi.

3. MS DOS ning tashqi buyruqlari ham alohida dastur bo'lib, disklarni formatlash yoki tekshirish kabi amallarni bajaradi.

4. Drayverlar maxsus dastur bo'lib, MS DOS ni to'ldiradi. Drayverlar OS ishga tushishi bilan xotiraga yuklanadi va uning xizmatlari CONFIG.SYS faylida ko'rsatilgan bo'ladi.

5. BIOS (kiritish va chiqarishning asosiy sistemasi) — kompyu-terning doimiy xotirasida joylashadi va kompyuterning qurilmalarini tekshiradi. U MS DOS ning ajralmas qismidir.

DOS bilan foydalanuvchi orasidagi muloqot **buyruqlar qatori** orqali amalga oshiriladi. Agar DOS foydalanuvchi bilan muloqotga tayyor bo'lsa, u holda ekranda quyidagi taklifni chiqaradi. Masalan, A:\> yoki C:\> by — DOS buyruqlarni qabul qilishga tayyor degani. DOS ning taklif buyrug'ini PROMPT buyrug'i orqali o'zgartirishimiz mumkin. Kelgusida kichik kursor o'chib-yonib turgan joyni **taklif buyrug'i** deb ataymiz.

Buyruq qatori ustida quyidagi tugmalardan foydalanish mumkin:

- [Backspace] — kypcop turgan joydan oldingi belgini yo'qo-tish.
- [Del] — kursor turgan joydagi belgini yo'qotish. [F3]— oldingi

buyruqni buyruqlar qatoriga chaqirish.

- [Ins] — qo'yish holatini yoqish yoki o'chirish.
- [Esc] — buyruqlar qatorini tozalash.

DOS buyruqlari fayl va kataloglar ustida amallar bajaradi. Demak, **fayl va katalog** atamalari nima ekanligini tushunib olishimiz kerak.

Kataloglar va fayllar. Katalog va fayllar bilan islash.

Disk (qattiq disk, yumshoq disk, kompakt disk va h.k.) dagi barcha ma'lumotlar fayllarda saqlanadi. Fayl diskdagi nomlangan soha bo'lib, o'zida ma'lumotlarni saqlaydi. Fayl nomi ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi ismi, ikkinchi qismi kengaytmasi deyiladi va ular bir-biridan nuqta bilan ajraladi. Faylga nom berishda biz quyidagi belgilardan foydalanishimiz mumkin:

- a) **0,1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9** — raqamlardan;
- b) **A,B, C, ..., Z** — lotin harflaridan;
- d) **!, #, @, \$, (,), -, _** — maxcyc belgilardan.

Ushbu <>.,:;<> \ / * ? belgilar fayl nomida ishtirok etishi mumkin emas.

Faylning ismi 1 dan 8 tagacha belgidan, kengaytmasi 0 dan 3 tagacha belgidan iborat bo'ladi. Faylning kengaytmasi bo'lmasligi mumkin, lekin albatta 1 ta belgidan iborat bo'lsa-da, ismga ega bo'lishi shart. Faylning kengaytmasi bo'lishining yaxshi tomoni shundan iboratki, bu kengaytma fayl turini aniqlab beradi va kerakli fayllarni tezda topish imkonini beradi.

Fayl nomining umumiy sxemasi quyidagicha:

Ismi								ngaytmasi			

Masalan:

fayl nomi bo'la oladi.	yl nomi bo'la olmaydi.
------------------------	------------------------

norm	.	txt	*ruber	.	doc
diplom	.	doc	???	.	com
book			>		
W			\	.	1
1			\	.	1
2	.	1		.	txt
AA	.	xls	a2	.	/?

Kengaytmaga qarab, fayllar bir xil turlarga ajratiladi. Masalan, matnli hujjatlar ko'pincha **txt**, **doc**, **prn**, **1st**, **bak** kengaytmalar fayllar bo'ladi.

«*» va «?» belgilaridan foydalanish

Ba'zan biror katalogda fayllar guruhini ifodalash uchun «*», «?» belgilaridan foydalaniladi. Bunda «*» — fayl nomi yoki kengaytmadagi ixtiyoriy belgilar soni. «?» belgisi esa faqatgina ixtiyoriy bitta belgini ifodalaydi.

Masalan:

*.bak — joriy katalogdagi bak kengaytmali barcha fayllar. **c*.doc** — c harfidan boshlanuvchi **doc** kengaytmali barcha fayllar.

. — joriy katalogdagi barcha fayllar.

s???.* — s harfidan boshlanuvchi to'rtta belgidan iborat ixtiyoriy kengaytmali fayllar tushuniladi.

d*.* — d harfidan boshlanuvchi va kengaytmasi ikkita belgidan iborat bo'lgan barcha fayllar.

Odatda, fayllar ikki turkumga ajratiladi: matnli va ikkilik tizimidagi fayllar. Matnli fayllar inson o'qiy olishi uchun mo'ljallangan. Matnli fayllar qatorlardan tuzilgan bo'lib, har bir qator oxiri [Enter] bilan yakunlanadi. Matnli bo'lmagan fayllar, odatda, ikkilik tizimidagi fayllar deyiladi. Bu ko'rinishdagi fayllarni oddiy usulda o'qib bo'lmaydi, ya'ni NC, **Lexicon**, **Word** kabi muharrirlarda o'qish imkoni yo'q.

Ish bajaruvchi fayllar deb o'zining tarkibida shu dasturni ishga tushiruvchi va foydalanuvchi bilan muloqot o'rnatuvchi faylga aytiladi. (Operatsion sistemaning

fayllari bundan mustasno.) Odatda, ish bajaruvchi fayllar ***.com**, ***.exe** kengaytmaga ega bo'ladi va bular ikkilik tizimidagi fayllar deyiladi. Kengaytmasi ***.bat** ko'rinishdagi fayllar ham ish bajaruvchi fayllar hisoblana-di, lekin bunday fayllar matnli fayllar turkumiga kiradi. Masalan, **autoexec.bat**, **lex.bat** va h.k.

Katalog (Directory). Fayl nomlari magnit disklarda kataloglarda saqlanadi. Katalog — fayllarni o'zida saqlovchi diskdagi maxsus joy. Katalog nomi ham fayl kabi ism va kengaytmaga ega bo'lishi mumkin. Lekin odatda, katalogga kengaytma berilmaydi. Magnit disklarda bir nechta kataloglar va qism kataloglar bo'lishi mumkin. Bu zaruriyatga qarab tuziladi. Katalog nomi shu katalogda joylashgan fayllarga qarab, umumiy nom sifatida beriladi. Har bir katalogda bir nechta qism katalog va bir qancha fayllar bo'lishi mumkin, lekin bar bir fayl bitta katalogda faqat bir marta qayd qilinadi. Agar X katalog Z katalogda joylashgan bo'lsa, u holda X — qism (ichki) katalog, Z esa tashqi katalog deyiladi. Har bir diskda o'zak (**КОПЧБОН**) katalog bo'ladi. Unda fayllar va 1-bosqichdagi kataloglar qayd qilinadi. 1-bosqichdagi katalogda fayllar va 2-bosqich kataloglar qayd qilinadi. 2-bosqich katalogda esa fayllar, 3- bosqich kataloglar va h.k. qayd qilinadi. Na-tijada magnitli diskda kataloglarning daraxtsimon tuzilishi (shajarasi) hosil bo'ladi (sxemaga qar.).

Ko'pincha kompyuterda ishlash jarayonida joriy katalog, o'zak katalog degan tushunchalarni tez-tez ishlatamiz. Bu tushunchalarga aniqlik kiritaylik.

Joriy katalog siz shu daqiqada ishlab turgan katalogdir. Joriy katalog 1-bosqich, 2-bosqich va h.k. laming faqat bittasi bo'lishi mumkin.

O'zak katalog esa har doim magnitli disk, ya'ni qattiq disk (virichester), yumshoq disk (disket, CD ROM li disk) bo'ladi. Oattiq disk bir necha qismlarga bo'lingan bo'lsa va shu bo'laklarning qaysi birida ishlayotgan bo'lsangiz, o'sha qism o'zak katalog bo'ladi.

Agar siz foydalanayotgan fayl joriy katalogda bo'lmasa, u holda bu faylni topish uchun yo'l ko'rsatishingiz kerak bo'ladi. Fayllarni qanday, qayerdan topish va

ular ustida qanaqa amallar bajarish mumkinligini quyida batafsil yoritamiz.

Buyruqlar. Fayl.

MS DOS buyruqlari.Endi **MS DOS ning ayrim buyruqlari** bilan tanishib chiqaylik. Shu yerda ikkita (i_i va \) belgiga alohida ahamiyat berishimiz kerak. Birinchi belgi [Space] (bo'sh joy) belgisi bo'lib, u buyruqlar bilan fayllar orasini ajratib turadi. Ikkinchisi og'ma chiziq (\)(qisqacha slesh deyiladi) belgisi bo'lib, bu o'zak va joriy kataloglarni ajratib turadi. DOS buyruqlari bilan ishlashda ushbu <> qavs ichidagi parametr har doim qo'yilishi shart bo'lmagan parametr deb, <> belgi ichidagi parametr har doim bo'lishi kerak bo'lgan parametr deb tushunilishi kerak. DOS buyruqlarini berishda bu ikki belgi yozilmaydi.

1. Help yoki Help <mavzu> — DOS haqida yordam olish. MS DOS haqida yordam olish uchun DOS katalogida **qbasic.exe va qbasic.hip** fayllari mavjud bo'lishi kerak. Agar DOS ning taklif buyrug'i qatoriga **help** terilgach, [Enter] tugmasi bosilsa, ekranda ushbu ko'rinishdagi ma'lumotlar oynasi paydo bo'ladi.

Bu yerdan kursorni kerakli buyruq ustiga olib borib, [Enter] tugmasi bosilsa, shu buyruq haqida ma'lumot olish mumkin. Bunda: * [Alt]+[C] — umumiy (1.1-rasm) holiga keltirish.

* [Alt]+[N] — keying! yordamga o'tish.

* [Alt]+[B] — oldingi yordamga o'tish.

Agar DOS ning taklif buyrug'i qatoriga **help ,_append** terilib, [Enter] tugmasi bosilsa, **Append** buyrug'i haqida ma'lumot chiqadi.

2. CLS —monitorning ekranini tozalash. Ekranning 1-qatorida DOS ning taklif buyrug'i paydo bo'ladi.

3. DATE — sana haqida ma'lumot chiqadi va kunni o'zgartirish imkoniyati paydo bo'ladi. Kunni o'rnatish uchun DOS ning taklifiga qaraladi. Masalan, DOS ning taklif buyrug'iga 09—20—98 terilsa, bu 1998- yil 20- sentabrni bildiradi.

4. TIME — vaqt haqida ma'lumot chiqadi va vaqtni o'zgartirish imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan, taklif buyrug'iga 10:30 terilsa va [Enter] tugmasi bosilsa, hosil bo'lgan yozuv soatning 10 dan 30 minut o'tganini bildiradi.

5. PROMPT — DOS ning taklif buyrug'ini o'zgartirish. Uning buyruq formati quyidagicha:

prompt <matn> _____

<matn> esa ixtiyoriy matn yoki quyidagilardan biri, yoki bir nechta bo' lishi mumkin (1.1 -jadval).

1.1-jadval

– joriy disk va katalog	– oldingi belgini o'chirish
– joriy disk	– “>” belgi
– joriy kun	– “<” belgi
– joriy vaqt	– “ ” belgi
– Dos versiyasi	– “\$” belgi
– bo'sh joy	– yangi qatarga o'tish

Masalan, **prompt** **\$p\$g** buyrug'i natijasi C:\> ko'rinishda bo'lib, joriy disk, katalog va > belgini akslantiradi. Agar taklif buyrug'i **prompt** **\$t\$p\$I** ko'rinishida bo'lsa, u holda DOS taklifi <joriy vaqt> C:\< ko'rinishda bo'ladi (masalan, 13.05 C:\<). **prompt** va **prompt** **\$p\$q** buyruqlari bir xildir.

6. DIR — kataloglar va fayllar ro'yxatini ko'rish. Buyruq formati quyidagicha:

Dir <Drive:> \Path\<filename> </params>

Bunda **path** — yo'l, parametrlar (params) har xil bo'lishi mumkin.

Masalan:

/P — fayllar ro'yxatini ekran to'lgunicha chiqaradi.

/W — fayllarni faqat ismi bo'yicha beshta ustunda chiqaradi.

/S — barcha katalog va qism kataloglarning mundarijasini va fayllar haqida ma'lumotlarni chiqaradi.

/C — siqilganlik darajasi haqida ma'lumot chiqaradi.

/ON — fayllarning nomi bo'yicha tartiblaydi.

/OE — fayllarning kengaytmasi bo'yicha tartiblaydi.

/OS — fayllarning hajmi bo'yicha tartiblaydi.

/OG — siqilganlik darajasi bo'yicha tartiblaydi.

/OA — fayllarni kuni va vaqti bo'yicha tartiblaydi.

Masalan:

dir — joriy katalogning mundarijasini chiqaradi.

dir ***.exe** — joriy katalogdagi kengaytmasi **exe** bo'lgan barcha fayllarni chiqaradi.

dir /p — joriy katalogning mundarijasini ekran to'lguncha chiqaradi.

dir C:*.* /s — diskning o'zak va qism kataloglardagi kengaytmasi txt bo'lgan barcha fayllar haqida ma'lumot chiqaradi.

7. Joriy diskni o'zgartirish buyrug'i. Diskni o'zgartirish uchun diskning nomi va ikki nuqta(:) terilishi va [Enter] tugmasi bosilishi kerak. Masalan:

A: — A yumshoq diskka o'tish.

C: — C diskka o'tish.

8. CD (Change Directory) — joriy katalogni o'zgartirish. Joriy katalogni o'zgartirish uchun **cd** buyrug'i mavjud. Uning buyruq formati quyidagicha.

Cd <drive:>\path

Agar disk(drive) berilsa, joriy disk shu diskka o'tadi, aks holda joriy diskda qoladi. Masalan:

cd \yoki **cd** \ — joriy diskning o'zak katalogiga o'tish.

cd .. — joriy katalogdan chiqish.

cd dos — DOS katalogiga o'tish.

cd a:\tutor — A yumshoq diskning TUTOR katalogiga o'tish.

9. MD (Make Directory) — katalog hosil qilish. Katalog hosil qilish uchun **md** buyrug'idan foydalaniladi va uning buyruq formati quyidagicha:

md <drive:>\path

Masalan:

md book — BOOK katalogini hosil qilish.

md a:\work — A diskda WORK katalogini hosil qilish.

md temp\tempo — TEMP katalogida TEMPO katalogini hosil qilish.

Bunda TEMP katalogi mavjud bo'lishi kerak.

md **country** — joriy katalogda COUNTRY katalogini hosil qiladi.

md **c:\lexicon\text** — C diskning LEXICON katalogida TEXT qism katalogini hosil qiladi.

10. RD (Remove Directory) — katalogni yo'qotish. Katalogni yo'qo-tish **rd** buyrug'i orqali amalga oshiriladi. Bu buyruqning ishlashi uchun katalog bo'sh bo'lishi kerak. Uning buyruq formati quyidagicha:

rd **<drive: >\path**

Masalan:

Rd **record** — joriy katalogdagi RECORD katalogini yo'qotadi.

Rd **\record** — o'zak katalogdagi RECORD katalogini yo'qotadi.

Rd **a:\text\book** — A— yumshoq diskning o'zak katalogdagi TEXT katalogining BOOK qism katalogini yo'qotadi.

Ba'zan kaialogni barcha fayllari va qism kataloglari bilan birga yo'qotishga to'g'ri keladi. Bunday paytlarda **Deltree** dasturidan foydalanish mumkin. Uning buyruq formati quyidagicha:

Deltree **filename or directory** **</y>**

Masalan:

Deltree **temp** — joriy katalogning TEMP katalogidagi barcha fayllarni qism kataloglari bilan yo'qotadi.

Deltree **/y** **\temp** — o'zak katalogning TEMP katalogidagi barcha fayllarni qism kataloglari bilan birgalikda so'ramasdan yo'qotadi.

11. MOVE — katalogning nomini o'zgartirish. Uning buyruq formati:

move **namedir1** **namedir2**

Bunda **namedir1** mavjud katalog nomi, **namedir2** yangi nom. Masalan:

Move **win** **win95** — WIN katalogini WIN95 katalogiga o'zgar-tiradi.

Move **a:\tutor** **\tearch** — A yumshoq diskning o'zak katalogidagi TUTOR katalogini TEARCH katalogiga o'zgartiradi.

Quyida fayllar ustida amallar bajaradigan DOS ning buyruqlari keltirilgan. Fayhiing nomi va parametrlari katta yoki kichik lotin harflarida terilishi mumkin.

Lekin odatda, fayl nomi kichik lotin harflarida teriladi.

12. COPY CON — matnli faylni hosil qilish. Uning buyruq formati quyidagicha:

Copy con filename

Bu yerda **filename** hosil qilinadigan faylning nomi. Bu buyruqdan keyin ma'lumotlarni birin-ketin kirita boshlaymiz. Matn tugagach, F6 va [Enter] yoki CTRL+Z tugmalarni bosamiz. Natijada fayl saqlanganligi haqida «One files copied» degan ma'lumot chiqadi.

13. COPY — fayllardan nusxa olish. Fayllardan nusxa olishda (* va ?) belgilaridan foydalanish mumkin. Fayldan nusxa olish uchun quyidagi buyruq formatidan foydalanamiz:

copy filename1 filename yoki

copy filename 1+filename2+... filename

Bu yerda **filename** — hosil bo'ladigan faylning nomi, **filename1, filename2,...** nusxa olinadigan fayllarning nomi, + belgisi fayllarni birlashtirishni anglatadi (fayllar bir-biriga ulanadi).

Masalan:

Copy book1+book2 volume — joriy katalogdagi **book1** faylini **book2** fayliga birlashtirib, birlashtirilgan faylni **volume** deb nomlaydi. Agar **volume** nomi yozilmasa, u holda **book1** faylini book2 fayliga birlashtirib, natijaviy faylni book2 deb nomlaydi.

copy tourist resting — joriy katalogdagi **tourist** faylidan shu katalogga **resting** nomi bilan nusxa oladi.

Copy c:\nc\nc.exe a:\dos — C diskning o'zak katalogidagi NC katalogining **nc.exe** faylidan A yumshoq diskning o'zak katalogidagi DOS katalogiga shu nom bilan nusxa oladi.

Copy *.txt \lexicon*.doc — joriy katalogdagi kengaytmasi **txt** bo'lgan barcha fayllardan o'zak katalogining LEXICON katalogiga kengaytmasi doc bo'lgan fayl formasida nusxa oladi.

14. MOVE — fayllarni ko'chirish. Faylni ko'chirishda fayl joyida qolmasdan to'laligicha boshqa katalogga o'tadi, uning buyruq formati quyidagicha:

move filename filename

yoki

move <y> **filename**<+**filename...** > **filename**

Masalan:

Move *.doc **d:** joriy katalogdagi kengaytmasi DOC bo'lgan barcha fayllarni D diskka o'z nomi bilan ko'chiradi.

Move c:\nc\nc.exe **a:\dos** — C diskning NC o'zak katalogidagi **nc.exe** faylini A yumshoq diskning DOS o'zak katalogiga shu nom bilan ko'chiradi.

Move <y> **lexicon*.doc** **a:\lexicon** — joriy katalogning LEXICON katalogidagi kengaytmasi dBM^lM^&^A^yT^rfai A

yumshoq diskning o'zak katalogidagi LEXICON katalogiga so'ramasdan shu nom bilan ko'chiradi.

15. RENAME — faylning nomini o'zgartirish. Bu buyruqda bi-rinchi faylning nomi ikkinchi faylga o'zgaradi. Uning buyruq format!

Ren filename 1 **filename!**

Bunda **filename 1** mavjud fayl, **filename!** esa yangi fayl nomi.

Masalan:

Ren total **common** — joriy katalogdagi **total** nomli fayl nomini shu katalogga **common** nom bilan almashtiradi.

Ren c:\lexicon\norm.txt **read.txt** — C diskning LEXICON katalogidagi **norm.txt** faylini shu katalogga **read.txt** nomli faylga o'zgartiradi.

16. DEL — faylni yo'qotish. Faylni yo'qotish uchun DEL buy-rug'idan foydalanamiz. Faylni yo'qotishda (* va ?) belgilaridan foydalanish mumkin. Uning buyruq formati quyidagicha:

del filename

Masalan:

Del temp — joriy katalogdagi temp faylini yo'qotadi.

Del **└c:\Windows\system*.bak** — C diskning Windows katalo-gining SYSTEM qism katalogidagi kengaytmasi **bak** bo'lgan barcha fayllarni yo'qotadi.

Del ***.*** — joriy katalogdagi barcha fayllarni yo'qotadi.

17. TYPE — fayldagi ma'lumotni ekranga chiqarish. Uning buyruq formati quyidagicha:

type **└filename**

Masalan:

Type **└book.txt** — joriy katalogdagi **book.txt** faylidagi ma'lu-motlarni ekranga chiqaradi.

Type **└temp\farm.doc** — o'zak katalogdagi TEMP katalogining farm.doc faylini ko'rish.

18. EDIT — faylni tahrir qilish. Faylni tahrir qilish uchun DOS katalogida **edit.com** fayli mavjud bo'lishi kerak. Uning buyruq formati:

edit **└filename**

bu buyruqda **filename** tahrir qilinadigan faylning nomi.

Masalan:

Edit **└book.txt** — joriy katalogdagi **book.txt** faylini ekranga chiqaradi va tahrir qilish imkonini beradi.

Edit **└a;\engtutor\engl.hlp** — A disk o'zak katalogining ENGTU-TOR katalogidagi **engl.hlp** faylini tahrir qiladi.

19. FILEFIND — fayllarni topish. Bu buyruq ishlashi uchun NU katalogida **filefind.exe** fayli mavjud bo'lishi kerak. Fayllarni topishda (* va ?) belgilaridan foydalanish qulay. Uning buyruq formati:

filefind **filename** **[qator belgilari]** **holat)**└

Buyruqda **filename** — qidirilayotgan faylning nomi, qator belgilari — fayl tarkibida uchrashi mumkin bo'lgan belgilar, (holat) — /C yoki /S bo'lishi mumkin.

/C — faqat joriy katalogdan, /S — joriy va unga tegishli barcha qism kataloglardan ham qidirish lozimligini bildiradi.

Masalan:

Filefind digger.* — **digger** nomli ixtiyoriy kengaytmali fayllarni qidiradi.

filefind *.doc «Ivanov» /c — joriy katalogdagi kengaytmasi **doc** bo'lgan fayllar orasidan Ivanov so'zi bo'lgan faylni qidiradi.

20. XCOPY — fayllardan nusxa olish. Bu buyruqning **copy** buyrug'idan farqi shundaki, bu buyruq ixtiyoriy katalog va qism katalogdan faylni topadi va ko'rsatilgan katalogga nusxalaydi, shu bilan birga qism katalogni ham hosil qilib ketadi. Fayllardagi ma'lumotni printerda chop etish uchun quyidagi buyruqlardan foydalaniladi:

copy filename prn
copy /b filename prn

Bu yerda **filename** — chop etiladigan faylning nomi, **Prn** — printerni anglatuvchi standart faylning nomi, **b** — ikkilik tizimdagi faylni anglatuvchi belgi.

Masalan:

Copy paper.txt prn paper.txt nomli fayldagi ma'lumotlarni printerda chop etishni bildiradi.

copy /b tutor.hp prn tutor.hp ikkilik tizimidagi faylni printerga chiqarish.

Kirish-chiqish bazaviy sistemasi

Kiritish-chiqarishning bazaviy sistemasi (BIOS) kompyuterning doimiy xotirasi (doimiy eslab qoluvchi qurilma, DEQQ) hisoblanadi. Operatsion sistemaning bu bo'limi kompyuterda o'rnatilgan bo'ladi. Uning vazifasi kiritish-chiqarish bilan bog'liq bo'lgan operatsion sistemaning ancha oddiy va universal xizmatlarini bajarish bilan belgilanadi. Kiritish-chiqarishning bazaviy sistemasi kompyuterni testlash funksiyasiga ham ega. U kompyuter manba blokiga ulangan vaqtda xotira va kompyuter qurilmalari ishini tekshiradi. Bundan tashqari, kiritish-chiqarishning bazaviy sistemasida operatsion sistemani yuklash dasturi ham mavjud. Kompyuterning barcha qurilmalarini tekshirish dasturlariga ham ega, monitor,

klaviatura, disk va printerlarda kiritish-chiqarish operatsiyalarini bajarish dasturlariga ham ega.